

ETNOTOPONIMLAR

Do'smurodov Rahimjon Baxtiyor o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada etnotoponim atamasining izohi va etnotoponimlarning etnik shakllarda ko'rinishi ifodalangan. Jumladan jahon va O'zbekistondagi etnotoponimlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: etnonim, etnotoponim, etnik birlik, "nisbiy negativlik", "nonsizlar", "po'stloqxo'rlar", "moxxo'rlar", urug'

ETHNOPONYMS

Dosmurodov is the son of Rahimjon Bakhtiyar
Chirchik State Pedagogical University
3rd year history major

ABSTRACT

This article describes the explanation of the term ethnotoponym and the appearance of ethnotoponyms in ethnic forms. Among them, the ethnotoponyms of the world and Uzbekistan are also listed.

Keywords: ethnonym, ethnotoponym, ethnic unity, "relative negativity", "breadless people", "bark-eaters", "mox-eaters", clan

KIRISH

Xaritalarga e'tibor berib qarasak, unda asosan toponimik – joy nomlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda joy nomlarining asosini qabila va xalqlar nomlari, ya'ni etnonimlar tashkil etadi. Buning sababi, kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridan boshlab aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Etnik belgi bilan nomlashda ijtimoiy voqelik bosh me'yor, mezon vazifasini o'tagan. Masalan, Sug'diyona, Baktriya, Liberiya, Parfiya kabi nomlarni eslash kifoya, chunki ularning barchasida etnik nom mujassam.



Barcha etnik birlikning nomi etnonim (yunoncha, etnos – “xalq”, onim – “nom”) deb ataladi. Juda ko‘p joy nomlari etnonimlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Qadimdan shakllangan urug‘, qabila, ittifoq, etnik tarkib nomlari hozirgacha hududlar kesimida saqlanibqolgan bo‘lishi va yoki o‘zgarib bizgacha yetib kelgan bo‘lishi mumkin. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Etnotoponimlarning ma‘lum bir qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko‘rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Aholi sivilizatsiyasi shakllangan - suv bo‘ylari, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay joylarda, yirik aholi punktlarida, turli etnik guruh vakillari aralash yoki yonma-yon yashagan joylarda etnotoponimlar zichroq tarqalgan. Ba‘zan, yo‘qolib ketgan xalqlar va tillarni tarqalish hududlarini aniqlashda etnotoponimik ma'lumotlarning o‘rni katta.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

V.A.Nikonov o‘zi ta’riflab bergan nisbiy negativlik qonuniga amal qilib, etnotoponimlar biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, ya’ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo‘ladi deb yozadi. Masalan, Rossiyada Russkie Lipyagi — Mordovskie Lipyagi — Chuvashskie Lipyagi; Russkiy Brod — Tatarskiy Brod; Russkaya Gvozdevka — Panskaya Gvozdevka; Russkaya Konopelka — Cherkasskaya Konopelka; Russkoe Porechnoe — Cherkasskoe Porechnoe kabi juft nomlar ruslar bilan ikkinchi bir xalq aralash yashaydigan hududda paydo bo‘lgan.¹

Etnotoponimlar – tarixan faoldirlar. Bu yo‘nalishdagi geografik nomlarga hududiylik, takroriylik xos bo‘lib, etnonimlarning ma‘lum bir sabablar tufayli ya’ni, tarixiy – geografik tarqalishi, etnik aloqalar hamda xo‘jalik faoliyatini xususiyatlari bilan bog‘liq. Nomlarning takroriyligi nom asosidagi so‘zning boshqa ijtimoiy, etnik, ruhiy, falsafiy xususiyati borligini ko‘rsatadi. Nomshunoslikning asosiy qonuniyatlaridan biri takroriylik hisoblanadi. Uning turi ham xilma-xil. Asosiy sababi xalq tafakkuridagi umumiyli, tabiat hodisalarini bir xil idrok qilinishidir. Inson tafakkuridagi, ma’naviyatidagi bu holat joy nomlariga ko‘chgan.

Etnonimlarning joy nomlari shaklida qayta-qayta takrorlanishida ijtimoiy voqelik ham muhim rol o‘ynagan. S.Qorayev ma'lumotlariga ko‘ra respublika toponimiyasi

¹ Toponimika. S.Qorayev. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006



tarkibida ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshbola, burqut. galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'ali, uyas, qutchi kabi etnonimlar shahar va qishloqlar nomlari tarkibida 5 dan 10 martagacha; bolg'ali, bolta, bahrin, qang'li, qiyot, qirq, mirishkor, mo'g'ul kabi etnonimlar 11-20 martagacha; beshkapa. do'rmon, jaloyir. qo'ng'irot. mangLit kabi etnonimlar 21-30 martagacha; qipchoq, saroy etnonimlari 31-40 martagacha takrorlanadi.

O'zbekiston etnotoponimiyasida etnotoponimlar zichroq joylashgan. Chunki bu yerda urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtlargacha ham mavjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan. Manbalarda 92 o'zbek urug'i bor deb ma'lumot berilgan.² O'z navbatida har bir urug' yanada mayda guruhlariga bo'linib ketadi. Etnograf K.Shoniyozovning ta'kidlashicha, birgina qo'ng'irot urug'i 200 dan ortiq kichik shox — to'plarga ajralib ketadi.

NATIJARLAR

O'zbek millatining etnik tarkibi turli qabila va urug'lardan tarkib topgan. Bu qabilalardan turklar qabilasi Xonaqodaryo havzasida, Kofimihonning yuqori oqimida, Qizilsuv, Yaxsuv daryolarining vodiylarida hamda ularning irmoqlari bo'ylarida, Qoradaryo vodiysida, Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimlarida, Buxoro yaqinida esa Shahrud kanali bo'yida, Samarqand atrofidagi tog'larning etaklari hamda yonbag'irlarida yashagan. Turklarning ancha qismi Andijon viloyatining Xo'jaobod va Marhamat tumanlari, O'sh viloyatining Aravon rayonida, O'ratepa atroflarida, Qashqadaryo vodiysidagi O'radaryo bo'ylarida, Sherobodaryo atroflaridagi tog'larda yashab kelganlar.

Etnonimlarni bilmasdan turib, O'zbekiston toponimikasi bilan shug'ullanish mumkin emas. Chunki urug', qabila nomlari ko'pincha muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, o'zbek urug'larini bilmagan kishi O'roqli, Cho'michli, Qarg'ali, Oytamg'ali, Qaychili, Uchtamg'ali kabi etnonimlarni «H» affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. Ming, yuz urug'lari joy nomlari tarkibida kelganda sonni bildirmaydi, albatta. Holbuki, Jizzax viloyatining Zomin tumanida o'zbek urug' Marining kuchukboy, tog'ayto'pi, oqtosh, yantoq, kal, kabi kichik guruhchalari, qirg'iz urug'laridan esa chopon (asli — Xonkel chapani), birquloq, eshqora, qozoq, jinni, to'qim kabi to'plari bo'lganligi ma'lum.³

² Tarixiy o'lkashunoslik (o'quv qo'llanma). F.B.Ochildiyev Toshkent «DONISHMAND ZIYOSI» 2020

³ Toponimika. S.Qorayev. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006



MUHOKAMA

O‘zbekiston etnotoponimlari orasida jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiydir, chunki odamlar birinchi bo‘lib ana shu hayvonlarni xonakilashtirgan. Qadimda urug‘larning muqaddas hayvonlari (totemi) bo‘lgan. Majusiylar davridan qolgan totemistik qarash insoniyatning tabiatga, tabiiy hodisalarga, turli mavjudotlarga munosabati majmui sanaladi.

Aholini ijtimoiy ahvolini ifodalovchi nomlarni boshqa mamlakatlar hududida ham uchratish mumkin. Masalan: Belarusda Besxlebechi — “nonsizlar”, Koroedi – “po‘stloqxo‘rlar”, Moxoedi – “moxxo‘rlar” kabi nomlar bor. Shu bilan birga, aristokratik toponimlar ham mavjud bo‘lgan. Qadimda Rossiyaning ko‘p shaharlaridagi eng katta ko‘chalar Dvoryanlar, Meshanlar kabi nomlar bilan atalgan, ular sobiq sovet davrida yangi nomlar bilan almashtirilgan.⁴

Etnotoponimlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, turli-tuman ijtimoiy, tarixiy, lingvistik omillar bilan bog‘liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug‘, qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, etnotoponimlar etnonimlar asosida yuzaga kelgan. Toponimikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri etnotoponimika orqali qadimgi xalqlarning yashagan hududlarini aniqlash mumkin. Etnonimlarni yaxshilab o‘rganmay turib, etnotoponimikani o‘rgana olmaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toponimika. S.Qorayev. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006
2. Tarixiy o‘lkashunoslik (o‘quv qo‘llanma). F.B.Ochildiyev Toshkent «DONISHMAND ZIYOSI» 2020
3. Toponimika. Qo‘chqor Hakimov. Toshkent «MUMTOZ SO‘Z» 2016.
4. Toponimika (Darslik). Q.M.Hakimov, M.T.Mirkamilov Toshkent «Tafakkur avlodi» 2020
5. ТАРИХИЙ УЛКАШУНОСЛИК. А. Набиев. ТОШКЕНТ – ЎҚИТУВЧИ. 1996

⁴ Toponimika. Qo‘chqor Hakimov. Toshkent «MUMTOZ SO‘Z» 2016.

